

SOTSIOPRAGMATIKA METODLARI

Abdullayeva Rohila Yusufjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
dotsenti v.b.

Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari uchun mos bo‘lgan metodni tanlash va uni tadqiqot ishiga joriy qilish masalasida bir necha qiyinchiliklar mavjud. Bunga asosiy sabab amaliyotda mazkur sohalarning qorishiq holda mavjud bo‘lishi va tadqiqot doirasining bir necha sohalar kesimiga to‘g‘ri kelishida ko‘rinadi. Jumladan, sotsiopragmatika jarayonda pragmatika, lingvistika, sotsiologiya, antropologiya, psixologiya, sotsiometriya sohalari bilan yaqindan hamkorlik qiladi va mazkur sohalarda qo‘llangan metodlardan foydalananadi. Tabiiyki, mazkur sohalarning barchasi uchun taalluqli kuzatuv, umumiyyadan xususiyga, xususiydan umumiyya borish jarayoni, tahlil, tasnif, to‘plamlarni o‘zaro qiyoslash, ularning umumiyy va xususiy jihatlarini belgilash, statistik ma’lumotlarni umumlashtirish jarayonlari sotsiopragmatik tadqiqotlar uchun ham ahamiyatli¹ va fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish uchun asos vazifasini bajaradi. Falsafaning mumtoz umumiyy metodlari sotsiopragmatik tadqiqotlarning amaliy ahamiyatini oshiradi. Bundan tashqari, anketa-so‘rovnama, suhbat metodi tajriba ishtirokchilaridan ma’lumotlarni olish va umumlashtirish, qiyoslash uchun xizmat qiladi.

Umumfalsafiy metodlardan tashqari jarayonda lingvistik tahlil metodlaridan foydalanish ham mumkin. Jumladan, fonetik, leksik-morfologik, grammatik birliklar va ularning xususiyatlari, nutqiy xoslanishi va chastotasi, gap va jumla tuzilishi tahlili ham sotsiopragmatik tadqiqotlarning ma’lum bir qismini tashkil qilishi mumkin. Ma’lum bir sotsial guruh vakillarining til xususiyatlarini tekshirish va farqli jihatlarini ko‘rsatish jarayonida leksik qatlarning faol kuzatuvini talab qilinadi. Biroq jarayonda asosiy e’tibor sotsiopragmatik tadqiqotlarning asosini tashkil qiliayotgan so‘zlovchi va tinglovchi, guruh statusiga, uning ijtimoiy holatiga qaraladi.

Sotsiopragmatik tadqiqotlar nafaqat lingvistik tadqiqotlar doirasida keng masshtabda o‘rganiladi. Jumladan, badiiy matn va uning pragmatik xususiyatlarini ko‘rsatish², tor

¹ Reiter R.M, Placencia. Research methods in Sociopragmatics. 2005.

² Umrzakova M. Ona lisoniy shaxsining sotsiopragmatik xususiyatlari / O‘zbekistonda xorijiy tillar, 2024-y, 10-jild, 55-bet.

doirada ma'lum bir janrga aloqador bo'lgan asarlar tahlilini berish³, til uslublari bo'yicha, kasbiy mansublik bo'yicha va h. sohalarda amalga oshirilgan ishlarning o'zbek tiliga ham kirib kelish jarayoni jadalashdi.

Sotsiopragmatik tadqiqotlar keng doirada bir necha tillarni tahlil qilish barobarida ham amalga oshirilishi mumkin. Jarayonda soha tadqiqot usullari lingvokulturologik tahlil va yondashuv bilan aloqadorlikda amalga oshiriladi. Bunda dastavval tildagi lingvokulturologik birliklar aniqlanib, keyingi planda ular sotsiopragmatik jihatdan tahlil qilinadi. Natijada, tadqiqot ham lingvokulturologik, ham sotsiolingvistik ahamiyatga ega bo'ladi.

Tilshunoslikda sotsiopragmatika tushunchasi til o'zlashtirish va til o'qitish jarayoniga nisbatan ham qo'llaniladi. Bunda asosan e'tibor chet tilini o'qitish yoki ma'lum bir tilni ikkinchi til sifatida o'qitish, ikkinchi tilni o'zlashtirish jarayonlariga qaratiladi. Tabiiyki, til o'qitihs jarayonida yuzaga keladigan bir necha sotsial va madaniy to'siqlar mavjud. Bu jarayonda sotsiopragmatik tadqiqotlar pedagogik metodlar va texnologiyalar tahlili bilan hamkorlik qiladi. Til o'qitish bilan bir qatorda til o'zlashtirish jarayonida ham sotsiopragmatik omillarning ta'siri bor. Bir til egalari millat uchun umumiyoq bo'lgan, uning til zaxirasida asrlar davomida to'planib kelgan va umummilliyligi hisoblangan tildan turli miqdorda va turli usullarda foydalanadilar, buning yaqqol misoli bir millatga mansub bo'lgan til egalarining leksik zaxiralarining turli miqdorda bo'lishi, ona tilidan xabardorlik masalasi turli ko'rsatkichlarda ekanligi, ma'lum hudud yoki qatlarning o'ziga xos leksikonining shakllanganligi, jamiyatda yosh, jins, faoliyat turi, ijtimoiy mansubligi asosida shakllangan guruhga taalluqli jargo, argo, slenglarning shakllanganligi asosida ham kuzatishimiz mumkin. Shunday ekan, demak, sotsiopragmatika sohasini til o'zlashtirish jarayoni va psixolingvistika bilan ham bog'lash mumkin.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, sotsiopragmatik tadqiqotlar ko'pqirrali yondashuvni talab qiladigan, umumfalsafiy metodlar asosida ish olib boradigan, tilshunoslikning lingvokulturologiya, psixolingvistika, til o'qitish metodikasi sohalari bilan hamkorlikda yondashuvni talab qiladigan soha hisoblanadi. Hozircha o'zbek tilshunosligiga nisbatan alohida sotsiopragmatik metodlarni ajratib imkoniyati mavjud emas. Biroq soha tadqiqining kengayishi asnosida mazkur sohaning ham o'z

³ Niyazova G. Detektiv asarlar tilining pragmatik tahlili / Образование и инновационные исследования, 2021.

tadqiqot metodlari shakllanishi mumkin. Glaballashgan ilm-fan muhitida tekshirish usullarining bir xil bo‘lishi tabiiy hodisa, soha tor doiraga aylana borishi asnosida o‘z metodologiyasiga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Umrzakova M. Ona lisoniy shaxsining sotsiopragmatik xususuyatlari / O'zbekistonda xorijiy tillar, 2024-y, 10-jild, 55-bet.
2. Niyazova G. Detektiv asarlar tilining pragmatik tahlili / Образование и инновационные исследования, 2021.
3. Reiter R.M, Placencia. Research methods in Sociopragmatics. 2005.